



Qarshi Davlat Universiteti

O.CH.KUZIYEV

I.R.Bekpulatov

**4. БАНД.О'rnatilgan tartibda ko'rib chiqib,
ijrosini taminlash uchun**

Muddat: 1 Dekabr 2023

№1/129

6 Noyabr 2023

D.X.Nabiyev

Rektor





O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2023 - yil « 3 » noyabr 489 -son

Toshkent shahri

Oliy ta‘lim muassasalari talabalari
o‘rtasida “Yil talabasi” tanlovini
yuqori saviyada o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta‘lim tizimida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 17-sentabrdagi 736-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Ilmda va jamoat ishlarida katta yutuqlarga erishgan talabalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning o‘z iqtidorlarini namoyon etishlariga imkoniyatlar yaratish, ularni moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish hamda talabalik nufuzini oshirish maqsadida 2023-yilning noyabr-dekabr oylarida “Yil talabasi” tanlovi (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) o‘tkazilsin.

2. Tanlovni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom 1-ilovaga, Tanlovni o‘tkazish sxemasi 2-ilovaga, Tanlovni o‘tkazish bo‘yicha respublika komissiya tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi (R.Xudayberganov)ga:

Tanlovni yosh avlodni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta‘minlash masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbus doirasida tashkil etish;

Tanlovni yuqori saviyada va keng qamrovda tashkillashtirish maqsadida ijtimoiy tarmoqlar hamda oliy ta‘lim muassasalarining veb-saytlarida keng targ‘ib qilish;

Tanlovning oliy ta‘lim muassasalari bosqichini yuqori saviyada o‘tkazilishini muvofiqlashtirish va zarur hollarda tashkiliy-uslubiy yordam ko‘rsatish hamda shaffoflik ta‘minlanishini nazoratga olish;

Tanlov targ‘ibotiga doir videoroliklar va boshqa materiallarni tayyorlash;

Tanlovning oliy ta'lim muassasasida g'olib bo'lgan ishtirokchilar to'g'risidagi ma'lumotlar yig'majildini jamlash va respublika Tanlov komissiyasiga taqdim etish vazifalari topshirilsin.

4. Oliy ta'lim muassasalari rektorlari va filiallar direktorlari Tanlov nizomiga muvofiq har bir nominatsiya bo'yicha 1-o'rinni egallagan ishtirokchilar to'g'risidagi ma'lumotlar yig'majildini belgilangan muddatlarda respublika Tanlov komissiyasiga taqdim etsin.

5. Moliyalashtirish va rejalashtirish boshqarmasi (M.Xamrayev) Tanlovning respublika bosqichini yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish hamda g'oliblarni taqdirlash bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy xarajatlarni vazirlikning oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplash uchun mablag' ajratsin.

6. Axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchi - matbuot kotibi (N.Abduqunduzova) Tanlovni o'tkazish jarayonlarini vazirlik hamda oliy ta'lim muassasalarining rasmiy saytlarida keng yoritilishini ta'minlasin.

7. Ushbu buyruq ijrosi nazorati vazir o'rinbosari S.Buzrukxonov zimmasiga yuklatilsin.

Vazirning birinchi
o'rinbosari



K. Karimov

**NUSXA
ASLIGA TO'G'RI**



Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida o'tkaziladigan "Yil talabasi" tanlovining NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar, respublikamizdagi barcha oliy ta'lim muassasalarida (*kunduzgi ta'lim shaklida*) tahsil olayotgan talabalar o'rtasida "Yil talabasi" tanlovini (keyingi o'rinlarda – Tanlov) o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlovning asosiy maqsadi talabalarning oliy ta'lim muassasasidagi o'qish jarayonida olgan bilimi va erishgan yutuqlarini xolisona baholash, jamiyatga va davlatga yetuk, yosh, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirib berish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni intellektual salohiyatini oshirish, oliy o'quv yurtlaridagi iqtidorli talabalarni aniqlash, ularning o'z salohiyatlarini namoyon etishlariga imkoniyatlar yaratish, jamoatchilik, fidoyilik fazilatlarini shakllantirish, talabalik nufuzini oshirish hamda munosib rag'batlantirib borishdan iborat.

3. Tanlov ikki bosqichda, ushbu buyruqning 2-ilovasida ko'rsatilgan sxemaga muvofiq (*tanlov komissiyasining qaroriga asosan zarur hollarda sxemaga o'zgartirish kiritilishi mumkin*) quyidagi tartibda o'tkaziladi:

a) birinchi bosqich - oliy ta'lim muassasasi bosqichi;

bunda, oliy ta'lim muassasasi rektori (direktori) rahbarligida tegishli mutaxassislar iborat bo'lgan tanlov komissiyasi tarkibi tasdiqlanib, ular tomonidan: oliy ta'lim muassasasida tanlovni o'tkazish bo'yicha har bir fakultetda ishchi guruhlar tashkil etish;

ishchi guruhlar tomonidan o'rganish asosida tanlovga tavsiya etilgan talabalarning taqdimotini tashkil etish;

tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan fanlarni o'zlashtirish natijalari, jamoatchilik ishlari va erishilgan yutuqlari aks ettirilgan hujjatlarni, shuningdek, talabalarning ilmiy va ijodiy ishlarini o'rganish va tahlil etish;

tanlov ishtirokchilarining darslardagi ishtiroki, faollik darajasi, yetakchilik qobiliyatini kuzatish va baholash hamda g'olib deb topilgan ishtirokchiga tanlovning respublika bosqichida qatnashishi uchun tavsiyanoma berish.

Oliy ta'lim muassasasi bosqichi ikki turda o'tkaziladi:

birinchi tur – har bir fakultetning o'zida;

ikkinchi tur – oliy ta'lim muassasasi miqyosida fakultetlar kesimida g'olib bo'lgan ishtirokchilar o'rtasida;

b) ikkinchi bosqich - respublika bosqichi;

bunda oliy ta'lim muassasasi bosqichida har bir nominatsiya bo'yicha 1-o'rinni egallagan talabalar ishtirok etadi.

Ikkinchi bosqichda respublika Tanlov komissiyasi tomonidan:

oliy ta'lim muassasalaridan taqdim etilgan tavsiya hujjatlarini va tanlov ishtirokchilarining taqdimot materiallarini qabul qilish, o'rganish va tahlil etish asosida g'oliblarni aniqlash;

tanlov g'oliblarining moddiy va ma'naviy rag'batlantirilishini tashkil etish;

tanlovning respublika bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimini yuqori saviyada o'tkazilishini tashkil etish;

tanlovning o'tkazilish jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini tashkil etish bilan bog'liq ishlar amalga oshiriladi.

4. Tanlov quyidagi nominatsiyalar bo'yicha o'tkaziladi:

a) **“Yilning o'z mutaxassisligi bo'yicha eng bilimdon talabasi”**, bunda talabaning fanlarning o'zlashtirishi va o'quv jarayonlardagi ishtiroki va faolligi, chop etilgan maqola va tezislari hamda ularning mazmun-mohiyati, dolzarbligiga oid ishlar ko'rib chiqiladi;

b) **“Yilning eng faol targ'ibotchi talabasi”**, bunda talabaning oliy ta'lim muassasasi jamoat ishlaridagi va boshqa jamoat tashkilotlari faoliyatidagi amaliy ishtiroki, faollik darajasi, targ'ibotchi sifatidagi namunaviy ishlari, tashkilotchilik qobiliyati va shu asosda o'zi tashkil etgan tadbirlar mazmuni, erishgan yutuqlari ko'rib chiqiladi;

d) **“Yilning eng faol ixtirochi-innovator talabasi”**, bunda joriy yilda talaba tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar, ixtirolar, innovatsion g'oyalari, ratsionalizatorlik takliflari, ularning yangiligi, dolzarbligi va ilmiy ahamiyati ko'rib chiqiladi;

e) **“Yilning eng faol sportchi talabasi”**, bunda joriy yilda talabaning xalqaro va respublika miqyosidagi o'tkazilgan sport musobaqalaridagi yutuqlari va erishgan natijalari ko'rib chiqiladi;

f) **“Yilning eng faol iqtidorli talabasi”** (rangtasvir, grafika, dizayn, amaliy san'at, haykaltaroshlik bo'yicha), bunda talabaning joriy yilda mustaqil ravishda yaratgan ijodiy asarlari, erishgan yutuqlari hamda turli tanlov va ko'rgazmalardagi ishtiroki ko'rib chiqiladi.

g) **“Yilning eng faol ijodkor talabasi”**, bunda talabaning joriy yilda o'z ijodiy badiiy asarlar, maqola, joriy yilda chop etilgan risola, kitob, musiqa, kino va teatr sohasidagi qiziqishlari hamda ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-ijodiy jarayonlardagi ishtiroki va erishgan yutuqlari ko'rib chiqiladi.

h) **“Yilning eng faol tadbirkor talabasi”** (xotin-qizlar uchun), bunda joriy yilda mustaqil ravishda tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ygan talaba-qizlarning erishgan yutuqlari hamda yoshlarni ish bilan ta'minlaganlik darajasi ko'rib chiqiladi.

II. Tanlovning oliy ta'lim muassasasidagi bosqichini tashkil etish tartibi

5. Tanlovning oliy ta'lim muassasasidagi bosqichi 2023-yilning noyabr oyida o'tkaziladi.

6. Tanlovning oliy ta'lim muassasasi bosqichining ikkita turda o'tkazilganligi to'g'risidagi yig'ilish (har bir tur bo'yicha alohida) bayonnomalari tanlov komissiyasi raisi imzosi bilan tasdiqlanadi va g'olib to'g'risidagi ma'lumotlar yig'majildi bilan birgalikda sxemada belgilangan muddatda respublika Tanlov komissiyasiga taqdim etiladi.

7. Tanlov komissiyasi oliy ta'lim muassasasining ma'muriy-boshqaruv xodimlari, professor-o'qituvchilar, hamkor tashkilotlardan jalb etilgan mutaxassislar, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat tarkibda tashkil etiladi.

8. Tanlov komissiyasi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

tanlovning oliy ta'lim muassasasidagi bosqichi axborot ta'minotini tashkil qiladi;

tanlov ishtirokchilaridan buyurtmanomalar va materiallarni qabul qilishni tashkil etadi;

tanlov ishtirokchisi taqdim etgan hujjatlarni hamda darslarda va jamoat ishlaridagi ishtiroki sifatini baholaydi.

9. Tanlovda oliy ta'lim muassasasida uzluksiz (akademik ta'tilsiz) kunduzgi ta'lim shaklida o'qib kelayotgan 2-, 3-, 4-bosqich talabalari ishtirok etishi mumkin.

10. Mazkur tanlovda oldingi yillarda ishtirok etib 1-, 2- va 3-o'rinni egallagan talabalarning qayta ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

11. Tanlovning oliy ta'lim muassasasi bosqichida ishtirok etish istagini bildirgan talabalar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar to'plami tegishli fakultetda tashkil etilgan ish guruh tomonidan saralanadi va belgilangan muddatlarda tanlov komissiyasiga taqdim etiladi.

12. Ishchi guruh tomonidan quyidagi hujjatlar oliy ta'lim muassasasining tanlov komissiyasiga taqdim etiladi:

ishtirokchining qobiliyati, fanlarni o'zlashtirish darajasi, yetakchilik qobiliyati, erishgan yutuqlari, darslardagi faol ishtiroki, talabalarga o'rnak bo'ladigan jihatlari va jamoat ishlaridagi faoliyati haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan ikki betdan oshmaydigan hajmdagi taqdimnoma;

tanlov ishtirokchisining fanlarni o'zlashtirish natijalari aks etgan hujjatlar (baholarni qayd etish varaqalari, talabaning baholarni o'zlashtirish sinov daftarchasi) nusxalari;

tanlov ishtirokchisining nashr etilgan ilmiy, ilmiy-uslubiy, ijodiy ishlari, ularga tegishli mutaxassislardan olingan taqrizlar bilan birga va ijodiy ishlarning elektron shakli;

xalqaro va respublikamiz miqyosida o'tkazilgan tadbirlar, tanlovlarda faxriy yorliqlar va diplomlar bilan taqdirlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar (nusxalari ilova qilinadi);

grantlarda ishtirok etganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma, grantning nomi, moliyalashtirish hajmi, ishtirokning shakli va darajasi ko'rsatiladi;

konferensiyalardagi ishtiroki haqidagi ma'lumotlar, ilmiy ishlar ro'yxati va ilmiy ishlar nusxalari ilova sifatida taqdim etiladi;

hujjatlar to'plamiga kiritilgan materiallar va axborotlar joriy yil davomida chop etilgan bo'lishi lozim.

13. Oliy ta'lim muassasasining Tanlov komissiyasi ishtirokchilarning hujjatlar to'plami, darslarda va jamoat ishlarida ishtiroki sifatini, shuningdek, ishtirokchi bilan individual o'tkazilgan suhbat doirasida olingan ma'lumotlarni baholash natijalarini hisobga olgan holda, har bir nominatsiya bo'yicha g'olib (1, 2, 3-o'rin)larni aniqlaydi va 1-o'rin sovrindorini tanlovning respublika bosqichida qatnashish uchun tavsiya etadi.

14. Nominatsiyalar bo'yicha 1, 2 va 3-o'rinlarni egallagan g'olib va sovrindorlar oliy ta'lim muassasasining faxriy yorlig'i hamda 1-o'rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 8 barobari, 2-o'rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 6 barobari va 3-o'rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 4 barobari miqdorida moddiy rag'batlantiriladi.

Moddiy rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlar oliy ta'lim muassasasi byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

III. Tanlov tashkilotchilari va ta'sisчилari

15. Tanlovning respublika bosqichi 2023-yilning dekabr oyida o'tkaziladi.

16. Tanlovning respublika bosqichini o'tkazish uchun to'qqiz kishidan iborat Respublika tanlov komissiyasi tarkibi tasdiqlanadi.

17. Quyidagilar Respublika tanlov komissiyasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

tanlovni o'tkazish muddatlarini belgilash (zarur hollarda masofaviy-onlayn shaklida) va uni yuqori darajada tashkil etish;

har bir nominatsiya bo'yicha alohida ekspertlar guruhi tarkibini shakllantirish;
har bir nominatsiya bo'yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish;

18. Respublika tanlov komissiyasi raisi:

komissiya majlisi kun tartibini belgilaydi va uni o'tkazadi;

komissiya qarorlarini tasdiqlaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

komissiya a'zolariga yuklatilgan vazifalarni bajarish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiradi.

19. Tashkiliy ishchi guruhi a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

komissiya majlislarida ko'rib chiqilayotgan masalalarni muhokama qilishda va hal etishda qatnashish;

ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha xulosalar taqdim etish.

20. Respublika tanlov komissiyasi faoliyatida ishtirok etish jamoatchilik asosida amalga oshiriladi.

21. Respublika tanlov komissiyasi majlisini rais yoki rais o'rinbosari boshqaradi.

22. Respublika tanlov komissiyasi majlisi a'zolarining uchdan ikki qismi qatnashganda vakolatli hisoblanadi.

23. Respublika tanlov komissiyasi kotibi:

Respublika tanlov komissiyasi majlisiga barcha zarur hujjatlarning o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi;

Respublika tanlov komissiyasi raisi bilan majlis o'tkaziladigan joyi va vaqtini kelishadi;

Respublika tanlov komissiyasi a'zolarini majlisning o'tkazilish sanasi, joyi va kun tartibidan xabardor qiladi;

Respublika tanlov komissiyasi majlislarining kun tartibidagi masalalar bo'yicha o'tkazilishini tashkil etadi;

Respublika tanlov komissiyasi majlisi bayonnomalarini rasmiylashtiradi va tasdiqlangandan so'ng Respublika tanlov komissiyasi a'zolariga va manfaatdor tashkilotlarga yuboradi.

24. Respublika tanlov komissiyasi qarori a'zolarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lganda Respublika tanlov komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

25. Respublika tanlov komissiyasining ish tartibi u tasdiqlaydigan reglament asosida belgilanadi.

26. Tanlovning ta'sischi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hisoblanadi.

27. Ta'sischi tanlovning barcha bosqichlarini tashkillashtirish va o'tkazish jarayonida Respublika tanlov komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlashda bevosita hamkorlik qiladi va o'z vakillarining Respublika tanlov komissiyasi a'zosi sifatida samarali ishlashi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

IV. Tanlovning Respublika bosqichini o'tkazish

28. Har bir nominatsiya bo'yicha ekspertlar tarkibi Respublika tanlov komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

29. Ekspertlar tomonidan tegishli nominatsiyalar bo'yicha tanlovning respublika bosqichiga taqdim etilgan hujjatlar o'n ish kuni mobaynida ko'rib chiqiladi hamda har bir nominatsiya bo'yicha Respublika tanlov komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan mezonlar asosida baholanadi va g'oliblar (1, 2 va 3-o'rin) aniqlanadi. Ekspertlar majlislari bayonnomalari Respublika tanlov komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

30. Tanlovning Respublika bosqichida har bir nominatsiya bo'yicha 1-, 2- va 3-o'rinni egallagan ishtirokchilarga tanlovning maxsus statuetkasi, guldasta, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining diplomi hamda 1-o'rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 15 barobari, 2-o'rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 10 barobari va 3-o'rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 8 barobari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

31. Tanlovning respublika bosqichi g'oliblarini moddiy rag'batlantirish O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug'i asosida oliy ta'lim muassasalarini Rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

32. Tanlov g'oliblari oliy ta'lim muassasalarining homiy tashkilotlari tomonidan qo'shimcha ravishda rag'batlantirilishi mumkin.

33. Tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar o'z hisoblaridan tanlov g'oliblarini qo'shimcha ravishda moddiy rag'batlantirishga haqlidirlar.

34. G'oliblarni taqdirlash marosimi Respublika tanlov komissiyasi qarori asosida belgilangan muddatda tantanali ravishda o'tkaziladi.

35. Tanlovga taqdim etilgan hujjatlar qaytarilmaydi.

36. Mazkur tanlovni tashkil etish va o'tkazishda ma'sul bo'lgan xodimlar asosiy ish joyidan rag'batlantiriladi.

V. Yakuniy qoidalar

37. Tanlov natijalari ijtimoiy tarmoqlar va rasmiy veb-saytlarda e'lon qilib boriladi.

38. Tanlov ishtirokchisi (boshqa shaxs) tomonidan tanlovning yakuniy bosqichini tashkil etish va o'tkazish, shuningdek, uning natijasi bilan bog'liq murojaat (e'tiroz)lar qabul qilinmaydi.

39. Mazkur nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.



**“Yil talabasi” tanlovini o‘tkazish bo‘yicha respublika komissiyasi
TARKIBI**

T/r	F.I.SH	Ish joyi va lavozimi
1.	S.Buzrukxonov	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining o'rinbosari, <i>komissiya raisi</i>
2.	R.Xudayberganov	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi direktori, <i>komissiya raisi o'rinbosari</i>
A'zolar		
3.	N.Qosimov	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Yoshlar siyosati va manaviy tarbiyaviy ishlar boshqarmasi boshlig'i
4.	M.Xamrayev	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Moliyalashtirish va rejalashtirish boshqarmasi boshlig'i
5.	N.Abduqunduzova	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining Axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchi-matbuot kotibi
6.	M.Gapparova	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi bo'lim boshlig'i <i>komissiya kotibi</i>
7.	I.Asomoddinov	Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi bo'lim boshlig'i
8.	D.Abdullayeva	Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi xodimi
9.	M.Turobov	Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi xodimi

Izoh: Mazkur komissiya tarkibiga kiritilgan xodimlar boshqa ishga o'tgan taqdirda ushbu vazifa uning o'rnini egallagan xodimga yuklatiladi.



2023-yilda "Yil talabasi" tanlovini o'tkazish S X E M A S I

<p>I bosqich</p> <p>Oliy ta'lim muassasasi bosqichi</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Oliy ta'lim muassasasida tanlov komissiyasi tarkibini shakllantirish va tasdiqlash.2. Tanlovning fakultet bosqichini o'tkazish.3. Tanlovning oliy ta'lim muassasasi bosqichi o'tkazish.4. Oliy ta'lim muassasasining tanlov komissiyasi tomonidan ishtirokchilar taqdim etgan hujjatlarni ko'rib chiqish.5. Tanlovning oliy ta'lim muassasasi bosqichi g'oliblarini aniqlash va g'oliblar to'g'risidagi ma'lumotlar yig'majildini Respublika tanlov komissiyasiga taqdim etish.	<p>6-noyabr</p> <p>6-10-noyabr</p> <p>10 – 15-noyabr</p> <p>15 – 24-noyabr</p> <p>30-noyabr</p>
<p>II bosqich</p> <p>Respublika bosqichi</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Tanlovning respublika bosqichiga taqdim etilgan hujjatlarni har bir nominatsiya bo'yicha ko'rib chiqish va baholash uchun tegishli mutaxassislardan iborat Ekspertlar tarkibini shakllantirish va tasdiqlash.2. Oliy ta'lim muassasalarida g'olib bo'lgan nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish.3. Tegishli nominatsiyalar bo'yicha tanlov g'oliblarini aniqlash.4. Tanlovning respublika bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimini yuqori saviyada o'tkazish.	<p>15-noyabr</p> <p>24-30-noyabr</p> <p>1-11-dekabr</p> <p>15-dekabr</p>